



## Agrosug'urtani rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi

---

Makroiqtisodiy va  
hududiy tadqiqotlar  
instituti

Qishloq xo'jaligini  
rivojlantirish loyihasi  
tomonidan tayyorlangan

D. Ilina –  
loyiha rahbari

A. Kim – yetakchi  
ilmiy xodim

Noqulay ob-havo sharoiti va tabiiy anomaliyalar ta'sirida butun dunyoda qishloq xo'jaligiga yetayotgan zarar ortib bormoqda. Kuchli yomg'irlar, do'l, yong'inlar, toshqinlar, qurg'oqchilik va bo'ronlar butun dunyo bo'ylab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy ekstremal tabiat hodisalaridir.

Masalan, 2021-yilda O'zbekistonda qish-bahor mavsumida **ob-havoning keskin o'zgarishi** bir necha bor kuzatildi<sup>1</sup>. Yanvar oyining oxiri va fevral oyining boshida yuzaga kelgan va yilning bu davri uchun g'ayritabiiy bo'lgan iliq ob-havo tabiatning juda erta uyg'onishi va natijada mevali daraxtlarning danakli turlari gullashiga olib keldi. Fevral oyining oxirida bog'bonlar eng qo'rqqan hodisa ro'y berdi. Fevral oyining so'nggi kunlarida Volga bo'yidan sovuq antitsiklon keldi. Havo harorati kunduzi -5, kechasi -9 darajagacha pasaydi. Bunday ob-havo 2-3 kun saqlanib qoldi. Bu esa daraxtlardagi gullarni nobud qilish uchun etarli edi. Asosan o'rtada joylashgan hududlar zarar ko'rdi. Masalan, Samarqand va Buxoro viloyatlari bog'bonlari va dehqonlari o'sha davrda gullagan o'rikning bo'lajak hosili (erta navlari) deyarli to'liq, gilosning esa 50 foizigacha nobud bo'lganini ma'lum qildi.

2023-yilning yanvar oyida **anomal sovuq** respublikada **piyoz zahiralari**ga katta zarar yetkazdi<sup>2</sup>.

Agar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan samarali milliy agrosug'urta tizimi mavjud bo'lsa, butun dunyo bo'ylab tabiat injiqliklari va falokatlar oqibatida yetadigan zarar ham ancha kam bo'lishi mumkin.<sup>3</sup>

Bunday tizimlar tabiiy ofatlar yuz berganda fermerlar va mamlakat iqtisodiyotini yetarlicha moliyaviy barqarorlik bilan ta'minlaydigan davlat va xususiy sektorning yaqin hamkorligini talab qiladi. Xalqaro amaliyot agrosug'urtada davlat-xususiy sheriklikning (DXSh) samarali modellarini yaratish muhimligini isbotlamoqda. DXSh asosida agrosug'urtaning turli modellarini shakllantirish bo'yicha alohida mamlakatlar tajribasini ko'rib chiqamiz.

<sup>1</sup><https://east-fruit.com/novosti/uzbekistan-tri-klimaticheskikh-syurpriza-za-tri-mesyatsa-i-poterya-poloviny-urozhaya-kostochkovykh/>

<sup>2</sup> <https://east-fruit.com/novosti/luk-zamyorz-uzbekistan-poteryal-chast-zapasov-luka-i-vynuzhden-ego-importirovat/>

<sup>3</sup> FAO. 2015. *Agriculture bears major brunt of disaster impacts, new report says* [online]. Sendai. [Cited 23 March 2021]. [www.fao.org/news/story/en/item/280526/icode/](http://www.fao.org/news/story/en/item/280526/icode/)

## *Xitoy*

Xitoy agrar sohadagi xavf-xatarlarni sugurtalash bo'yicha eng yirik va ayni paytda eng jadal rivojlanayotgan bozorlardan biridir. Xitoyda qishloq xo'jaligi sug'urtasi 1982-yilda ekinlar va chorva mollari uchun sug'urta mukofotlarini taqdim etish orqali joriy etilgan. Xitoyda qishloq xo'jaligi sug'urtasining rivojlanish tarixini **3 bosqichga** bo'lish mumkin<sup>4</sup>.

**Birinchi bosqich** XXR hukumati qishloq agrosug'urtaning bevosita operatori bo'lgan 1982-1992 yillarga to'g'ri keladi. **Xitoyning Davlat xalq sug'urta kompaniyasi** (People's Insurance Company of China (PICC)) barcha mahalliy sug'urta muassasalari, shu jumladan agrosug'urtani ham boshqargan. Agrosug'urtaning yuqori xavfi va yuqori narxi tufayli PICC katta yo'qotishlarga duch keldi. Ammo davlat subsidiyasi yordamida kompaniya bu davrda agrosug'urtani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlay oldi.

**Ikkinchi bosqich** (1993-2003 yillar) XXRda bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini jadal yaratish bilan bog'liq. PICC asta-sekin tijorat sug'urta kompaniyasiga aylandi va foydani eng yuqori darajada oshirishga intilish kompaniyaning asosiy maqsadi bo'ldi. Agrosug'urta tijorat sug'urtasining bir tarmog'i sifatida butunlay bozorga yo'naltirildi va yashirin subsidiyalarni ortiq ololmadi. Ushbu bosqichda agrosug'urta biznesi sezilarli darajada pasayidi va ko'p joylarda muammolar paydo bo'ldi.

**Uchinchi bosqich** davlat va bozor o'rtasidagi hamkorlik tartibi bilan tavsiflanadi (2004-yildan hozirgi kungacha). 2004-yilda XXR Markaziy hukumatining 1-sonli hujjatida ilk bora "siyosat asosidagi agrosug'urta tizimini yaratishni tezlashtirish"ni taklif etilgandi. Ushbu modelda hukumat o'z operatsion majburiyatlarini qisman yoki to'liq xususiy sug'urta sektoriga o'tkazadi. Davlat tijorat sug'urta kompaniyalari uchun "sherik" va "kuzatuvchi" rolini o'ynaydi. O'shandan beri muassasalarning qishloq xo'jaligini sug'urtalashda ishtirok etish chegarasi pasaytirildi. Markaziy hukumat va mahalliy ma'muriyatlar agrosug'urta badallarini va boshqaruv xarajatlarini subsidiyalay boshladi va siyosatning ayrim jihatlari, masalan, davlar boshqaruvi, bozorlar faoliyati va muvofiqlashtirilgan rag'batlantirishni shakllantirish uchun asos yaratdi. 2020-yilda subsidiyalangan sug'urta

<sup>4</sup> Public data of the Government of the PRC, Ministry of Finance; Yu Qi. 2021. Ministry of Finance: Agricultural Insurance Has Become an Important Means of Guaranteeing Agricultural Production, Allowing Insured Farmers to «Guarantee Income from Droughts and Floods.» Baidu. 30 June.  
<https://baijiahao.baidu.com/s?id=1703961706276798400&wfr=spider&for=pc> (in Chinese).

mukofotlari **60,3 milliard yuanga** yetdi. Bu umumiy sug'urta mukofotlarining **74 foizini** tashkil etardi. Qishloq, o'rmon xo'jaligi, chorvachilik va baliqchilikni qamrab oluvchi 270 dan ortiq subsidiyalangan sug'urta turlari mavjud. Sug'urta kompaniyalari ushbu model doirasida yuqori darajadagi tartibga solish sharoitida tijorat raqobatiga erishdi va Xitoyda qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozori jadal rivojlandi. 2020-yilga kelib, mamlakatda agrosug'urta bo'yicha mukofotlari hajmi **81,5 milliard yuanga** yetdi. **189 millionta uy xo'jaligi** uchun xatarlardan himoya summasi **4,13 trillion yuanni tashkil qildi** va zarar ko'rgan **51 millionta uy xo'jaligiga 61,66 milliard yuan** kompensatsiya to'landi. Agrosug'urta fermerlar uchun tabiiy ofatlardan so'ng, ishlab chiqarish va hayotni tiklash uchun moliyaviy yordamning muhim manbaiga aylandi<sup>5</sup>.

Davlat va tijorat sug'urta kompaniyalari sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, sug'urta to'lovlarini aniqlash, to'lash, qishloq xo'jaligi sug'urtasi loyihalari samaradorligini baholash va nazorat qilish uchun birgalikda javobgardir. Sug'urta mukofotlarini subsidiyalash xarajatlari turli darajadagi hokimiyat organlari o'rtasida taqsimlanadi. Markaziy hukumat tomonidan moliyalashtirish provinsiyalar subsidiyalarni taqdim etgandan so'ng boshlanadi.

Markaziy hukumat tomonidan taqdim etiladigan sug'urta mukofotlari ulushi sug'urta turi (qishloq xo'jaligi, chorvachilik, o'rmon xo'jaligi va maxsus Tibet sug'urtasi) va joylashuvga (Sharqiy, O'rta va G'arbiy hududlar) qarab farq qiladi. Masalan, Szyansu provinsiyasida markaziy hukumatning ulushi 35 foizni, Xenanda esa 40 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, markaziy hukumat ajratadigan subsidiyalar ulushi an'anaviy ravishda provinsiya, munitsipal va uyezd darajasidagidan yuqori.

Dastlab agrosug'urta makkajo'xori va bug'doy kabi ekinlarni qamrab oldi. Keyinchalik mahsulotlar ro'yxati kengayib, mevalar, choy o'simligi, dorivor o'tlar, tamaki, daraxt qurbaqalari, ipak qurti va tutni o'z ichiga oldi. Ko'p hollarda kengaytirilgan qamrov faqat tajriba loyihalarida yoki kichik va ixtisoslashgan hududlarda taqdim etiladi. Chorvachilik sug'urtasi chorva mollarning ko'p turlarini va hayvonlar o'limining turli sabablarini qoplash uchun faqat qoramollarni majburiy so'yishni qamrab oladigan oddiy sug'urtadan kengaytirildi.

<sup>5</sup> <http://dx.doi.org/10.22617/BRF220530-2>

Qishloq xo'jaligidagi xatarlarni sug'urtalash sohasidagi tez o'sish bir necha omilga bog'liq:

- Qishloq xo'jaligi sug'urtasi ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi;
- mahsulotlar, jumladan indeksli sug'urtani ishlab chiqishni takomillashtirish uchun davlat va xalqaro sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning jalb qilinishi;
- xatarlarni sug'urta qilish qiymatini aniqlashda davlatning ishtirok etishi<sup>6</sup>.

## ***Turkiya***

**Turkiyada qishloq xo'jaligi sug'urtasining rivojlanishini 2 bosqichga bo'lish mumkin.**

**Birinchi bosqich** - 1957-2005 yillar. Ushbu davrda Turkiyada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlash uchun ko'plab qonunlar bilan tartibga solingan turli xil xatarlarni boshqarish tizimlari qo'llanildi. Bu qonunlar tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan fermer xo'jaliklariga urug'lik va moddiy yordam ko'rsatish yo'li bilan zarar ko'rgan fermerlarga kompensatsiya berishni tartibga soldi. Bu davrda davlat yordamidan tashqari 9 ta xususiy kompaniya (62 ta kompaniyadan 9 tasi) qishloq xo'jaligini sug'urtasini taklif qildi. Sug'urtalangan fermerlar ulushi juda kam edi: do'l bo'yicha fermerlar umumiy sonining 0,1 foizi va chorva mollari uchun 0,5 foizi.

2005-yilning 14-iyunda "Qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimi to'g'risida"gi yangi qonunning qabul qilinishi bu sohada **davlat-xususiy sheriklikni** yo'lga qo'yish imkonini beruvchi, qishloq xo'jaligini yo'qotishlardan himoya qilishning texnik-iqtisodiy jihatlarini belgilab berganligi yangi davrga o'tishning zaruriy sharti bo'ldi.

2006-yilning 6-iyunida qishloq xo'jaligi sug'urtasining yangi tizimiga o'tildi. U tabiiy xatarlar tufayli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi zararni qoplashni kafolatlovchi yagona organning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Yangi tizimning asosiy xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- Qishloq xo'jaligi sug'urtasi uyushma;

---

<sup>6</sup> Swiss Re. 2016. First Parametric Insurance Programme Against Risks of Natural Disaster for Farmers in China. 3 August. [https://www.swissre.com/media/news-releases/2016/nr\\_20160803\\_chinaparametric.htm](https://www.swissre.com/media/news-releases/2016/nr_20160803_chinaparametric.htm).

- Hukumat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik (DXSh);
- Sug'urta mukofotlarini davlat tomonidan subsidiyalash (sug'urta mukofotlari umumiy summasining 50 foizi);
- Fermerlar uchun ixtiyoriy;
- Boshqaruv kompaniyasi (TARSIM);
- Fermerlarni ro'yxatga olish tizimlari.

2006-yilda davlat-xususiy sheriklik asosida qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimi tashkil etilganidan buyon Turkiya hukumati fermerlarni qishloq xo'jaligi sug'urtasi badallarining 50 foizini moliyalashtirish orqali qo'llab-quvvatlamogda.

Shunday qilib, sug'urta va qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi **davlat, xususiy muassasa va tashkilotlarning badallari hisobiga qishloq xo'jaligi sug'urtasining yangi tizimi** shakllantirildi. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi uyushmasining tashkil etilishi Turkiyadagi yangi qishloq xo'jaligi tizimining asosiy xususiyati edi.

Qishloq xo'jaligini sug'urtalash uyushmasiga **boshqaruv kompaniyasi (TARSIM)** kiradi. U qishloq xo'jaligi biznesi bilan shug'ullanadigan sug'urta kompaniyalari tomonidan korporatsiya sifatida tashkil etilgan tashkilotdir.

Sug'urta kompaniyalari TARSIMda teng ulushlarda ishtirok etadi va **boshqaruv qo'mitasi** 5 xil subyektning 7 a'zosidan iborat, xususan: Qishloq xo'jaligi va qishloq ishlari vazirligi (2 a'zo), G'aznachilik (2 a'zo), Sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalari uyushmasi (1 a'zo), Turkiya qishloq xo'jaligi palatalari ittifoqi (1 a'zo), uyushmani boshqaruvchi kompaniya - TARSIM (1 a'zo).

Boshqaruv qo'mitasi va TARSIMning asosiy vazifalari qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimida qo'llaniladigan asosiy tamoyillarni ishlab chiqish va ekinlar, subsidiyalar nisbati, xatarlar va qo'llab-quvvatlanadigan hududlar bilan bog'liq tadqiqotlarni o'tkazishdir. Kengashning asosiy vazifalari, shuningdek, muammolarni bartaraf etish, da'volarni ko'rib chiqish tartibi, TARSIM bilan shartnoma tuzish va sug'urta kompaniyalari uchun komissiyalar tuzishni o'z ichiga oladi. TARSIM tizimda da'volarni ko'rib chiqish, xatarlarni taqsimlash, o'tkazish va qayta sug'urta rejasini amalga oshirish, shuningdek, mukofotlarni

yig'ish va to'lovlarni to'lash bilan bog'liq barcha ishlarni bajarishda muhim rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligi va qishloq tumanlari vazirligi (MARA) mamlakatda qishloq xo'jaligi sug'urtasining yangi tizimini ishlab chiqish, jumladan, tizimni monitoring qilish va baholash, seminarlar, o'quv dasturlari va nashrlarni tashkil etish kabi masalalarga mas'ul edi; MARA, shuningdek, hosil, xavf va hududlarga qarab Vazirlar Mahkamasiga mukofot subsidiyalari bo'yicha takliflar kiritishi kerak.

Barcha sug'urta kompaniyalari TARSIM Pool<sup>7</sup> tizimida bir xil mukofotlar, tariflar va texnik shartlardan foydalangan holda bir xil shartlar ostida polislarini chiqaradi. Fermerlarni ro'yxatga olish tizimida ro'yxatdan o'tish qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha davlat ko'magini olish uchun fermerlar bajarishi kerak bo'lgan birinchi talabdir. Shu bois qishloq xo'jaligida sug'urtani joriy etish jarayoni uchun ro'yxatga olish tizimi zarur, deb hisoblash mumkin.

Turkiyada fermerlar mahsulotiga qarab turli tizimlar bo'yicha ro'yxatga olinadi. Ushbu ro'yxatga olish tizimlari quyidagilar tomonidan boshqariladi: Ekinlar uchun fermerlarni ro'yxatga olish milliy tizimi (NFRS); Issiqxonalar uchun integratsiyalashgan boshqaruv va nazorat tizimi (IACS); Chorvachilik uchun naslchilik tizimi; Suv ekinlarini ro'yxatga olish milliy tizimi.

**Turkiyada qishloq xo'jaligi sug'urtasining yangi turini rivojlantirish bosqichlari<sup>8</sup>:**

**2006-yil 1-iyun.** Hosil va chorva mollarini sug'urtalash joriy etildi.

**2006-yil 1-sentyabr.** Issiqxona va parrandachilik sug'urtasi joriy etildi.

**2007-yil 1-iyulda. Suv ekinlari (akvakultura) sug'urtasi joriy etildi.**

**2011-yil 1-may.** Qo'y va echkilar sug'urtasi bo'yicha naslchilik uchun mo'ljallangan qo'y va echkilar (qo'y, echki, qo'chqor va buqalar) sug'urtalandi.

**2014-yil 1-yanvar.** Asalari uyasini sug'urtalash joriy etildi.

**2017-yil 1-yanvar.** Qurg'oqchil qishloq xo'jaligi hududlarida yetishtiriladigan bug'doy uchun tuman sug'urtasi joriy etildi.

<sup>7</sup> TSRSB, 2007, Annual Report, Association of the Insurance and Reinsurance Companies of Turkey, Ankara, TURKEY

<sup>8</sup> TARSİM 2021 Annual Report

**2021-yil 1-yanvar.** 2017-yilda yo'lga qo'yilgan hosilni qurg'oqchilikdan sug'urtalash bo'yicha tuman sug'urtasi 2021-yildan boshlab qishloqlar darajasida qo'llanila boshlandi.

**2021-yil 1-oktyabr.** Tajriba tariqasida Konyaning Jixanbeyli, Qoratoy va Qadinxani tumanlarida bug'doy yig'im-terimidan olinadigan daromadlarni 60 foiz sug'urta badali miqdorida davlat tomonidan subsidiyalash joriy etildi.

Aytish joizki, boshqa mamalakatlarda Turkiyadagi agrosug'urta tizimi asosida agrosug'urta tizimining yaratilishi Turkiyadagi agrosug'urta tizimining muvaffaqiyatli ekaniga oid qo'shimcha ko'rsatkich bo'ldi. 2018-yilning 9-11-dekabr kunlari Turkiya va Ozarbayjon o'rtasida qishloq xo'jaligi sug'urtasi sohasida hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiya imzolandi. Pirovardida, 2020-yil 3-noyabr kuni Turkiya va Ozarbayjon o'rtasidagi intensiv aloqalar va TARSIMning Turkiya qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimi modelini Ozarbayjonda qayta yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiyalari natijasida Ozarbayjon qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasi o'zining birinchi polisini chiqardi va o'z faoliyatini boshladi.

### ***Isroil***

Isroil 50 yildan ortiq vaqt buyon qishloq xo'jaligi sug'urtasini faol rivojlantirib kelmoqda. **Qishloq xo'jaligida tabiiy xatarlardan sug'urta qilish davlat jamg'armasi (KANAT)** mamlakatda qishloq xo'jaligi sug'urtasini ta'minlaydi, sug'urta mukofotlari stavkalarini subsidiyalaydi (barcha turdagi ekinlar va chorvachilik uchun 35 foizli subsidiya) hamda risklar portfelini xalqaro miqyosda qayta sug'urtalaydi. Davlat, shuningdek, alohida Tabiiy ofatlar dasturi bo'yicha sug'urta badallarining 80 foizini qoplaydi. Ushbu dastur KANAT tomonidan davlat nomidan boshqariladi. KANAT hosilni sug'urtalashdan tashqari, chorva mollari va akvakultura uchun ham sug'urta mahsulotlarini taklif etadi<sup>9</sup>. **Isroilda qishloq xo'jaligi sug'urtasi majburiy.** Shuning uchun mamlakatda qishloq xo'jaligi sug'urtasining tarqalishi taxminan **90 foizni** tashkil qiladi.

KANAT - Qishloq xo'jaligida tabiiy xavflarni sug'urtalash jamg'armasi 1967-yildan beri faoliyat yuritadi. Unga nisbatan mulk huquqi Isroil hukumati

<sup>9</sup> Mahul, O. & Stutley, C.J. 2010. *Government support to agricultural insurance: challenges and options for developing countries*. Washington, D.C., The World Bank. (<https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/2432>).

va fermerlarning marketing kengashlari va tashkilotlariga teng ulushlarda tegishli.

Isroil hukumati KANATga tabiiy ofatlarga duchor bo'lgan fermerlarga o'z daromadlarini himoya qilish va oshirish imkonini beruvchi muhim sug'urta vositasi sifatida qaraydi. Hukumat qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash uchun sug'urta mukofotlarining bir qismini subsidiyalaydi va fermerlarga eng yaxshi va eng zamonaviy himoyani ta'minlaydigan innovatsion sug'urta dasturlarini moliyalashtirishda ko'mak beradi. So'nggi bir necha yil ichida KANAT keng turdagi yangi sug'urta polislarini ishga tushirdi. **Bug'doy va arpa daromadlarini sug'urtalash** ushbu yangi innovatsion sug'urta dasturlaridan biridir. Daromad sug'urtasi bug'doyning kutilayotgan hosilini va kutilayotgan narxini aniqlash uchun mintaqaviy modelga asoslanadi, shu bilan birga valyuta kurslarining o'zgarishiga javob beradi. Model hosildorlik yoki bug'doy narxining pasayishi yoxud ikkalasi tufayli oldindan kutilgan daromadni ololmagan har bir qishloq xo'jaligi hududi moliyaviy kompensatsiya olishini ta'minlaydi va shu tariqa daromadni kafolatlaydi.

**KANAT ikkita asosiy sug'urta yo'nalishini** taklif qiladi:

- Hosilini ko'plab xatarlardan sug'urtalash (MPCI);
- Tabiiy ofatlardan sug'urtalash (NDI).

*Hosilini ko'plab xatarlardan sug'urtalash (MPCI)*

Qishloq xo'jaligining aksariyat tarmoqlarida mavjud bo'lib, u dehqonlarni do'l, sovuq, bo'ron, toshqin, qor, yomg'ir va boshqa ko'plab ob-havo sharoitlari tufayli yuzaga keladigan tabiiy ofatlardan himoya qiladi.

*Tabiiy ofatlardan sug'urtalash (NDI)*

Qishloq xo'jaligining aksariyat tarmoqlarida mavjud. Sug'urta MPCI tomonidan qoplanmagan noqulay ob-havo sharoiti, zararkunandalar va kasalliklar, daraxtlarga ma'lum tabiiy zarar etkazilgan zararni qoplaydi. Sug'urta tovonlari sug'urta turiga qarab fermerning xarajatlarini qoplaydi.

**Asosiy sug'urta (majburiy)** – uning Kengashi tomonidan aksariyat sektorlar uchun KANATdan sotib olinadi va ushbu sektordagi barcha fermerlarni qamrab oladi.

**To'liq sug'urta qoplamasi (ixtiyoriy)** – KANAT ko'pchilik tarmoqlardagi fermerlarga mukofot shartlari bilan qo'shimcha sug'urta taklif qiladi. Ixtiyoriy sug'urtani yakka tartibdagi fermer bevosita KANATdan sotib oladi.

Ko'rib chiqilayotgan qishloq xo'jaligi sug'urtasi modellarining har biri o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega (masalan, davlat uchun yuqori ma'muriy xarajatlar). Ammo qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha to'plangan jahon tajribasi O'zbekistonga qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini ortib borayotgan xavf-xatarlardan himoya qilish uchun **qishloq xo'jaligi sug'urtasining eng samarali va mahalliy sharoitga mos modelini** tanlashda yordam berishi mumkin.